



Qurilish korxonalarida raqamli iqtisodiyotning zaruriyati

Abdulkarimov Bobir Gulmamatovich

AIQI "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasida katta o'qituvchisi

**Qahramonov Behruz Bahtiyor o'g'li,
Muhammadyunosova Mohidil Sharobiddin qizi,
Muhtorova Yulduzxon Mo'minjon qizi**

AIQI talabalari

Annotatsiya

Qurilish korxonalarida raqamli iqtisodiyotning zaruriyati, uning foydali jihatlari va amaliyotga tatbiq etish yo'nalishlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar:

raqamli iqtisodiyot, qurilishda raqamli iqtisodiyot, qurilish jarayonlarini avtomatlashtirish, raqamli texnologiyalarga o'tish.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar zamonaviy jamiyat hayotining barcha sohalariga, jumladan iqtisodiyot sohasiga ham faol kirib bormoqda. Iqtisodiyotni raqamlashtirish global iqtisodiyotda iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylanmoqda. O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta'minlash, shu jumladan elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi ishlab chiqildi. Ushbu strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish va ko'zlangan maqsadlarga erishishni ta'minlash tahliliy va ilmiy-uslubiy tadqiqotlarni va innovatsion o'zgarishlarni talab qiladi. Bunday o'zgarishlar esa raqamli iqtisodiyotning mohiyati, tarkibi va rivojlanish xususiyatlari to'g'risida nazariy va tahliliy bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi.

O'zbekistonda qurilish sohasi mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar va raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi qurilish korxonalarini uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli iqtisodiyot qurilish

sohasida samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va innovatsiyalarni joriy qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli iqtisodiyot - bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish orqali ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va tovarlar aylanmasini boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish hamda raqamlashtirishdir. U biznes modellar, faoliyat jarayonlari va kompaniyalarning ichki tizimlarida innovatsiyalarni joriy etishga qaratilgan.

Raqamli iqtisodiyot - bu mehnat unumdorligi va iqtisodiy o'sishni tezlatish, turmush sifati va investitsion muhitni yaxshilash maqsadida raqamli texnologiyalar, institutlar, nomativ-huquqiy baza, ko'nikmalar va biznes yordamida onlayn rejimida ma'lumotlar almashinish vositasida iqtisodiy rivojlanish paradigmasidir.

Raqamli iqtisodiyot - xo'jalik yurituvchi faoliyati bo'lib, unda asosiy ishlab chiqarish omili ularni katta hajmda qayta ishlash va ularning tahlil natijalaridan foydalanish an'anaviy xo'jalik yuritish shakllari bilan taqqoslaganda turli ishlab chiqarish turlari, texnologiyalar, asbobuskunalar, sotuv, saqlash, tovarlar va xizmatlar yetkazib berish samaradorligini jiddiy oshirishga imkon beradigan raqamli ko'rinishdagi ma'lumotlar hisoblanadi.

Qurilish sohasida raqamli iqtisodiyotning ahamiyatini quyidagilardan iborat:

- Loyihalash va dastlabki bosqichlar samaradorligini oshirish.

Raqamli iqtisodiyot qurilish loyihalarining dastlabki bosqichlarini avtomatlashtirish va optimallashtirish imkoniyatini beradi. Masalan, BIM (Building Information Modeling) texnologiyasini joriy etish orqali qurilish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish mumkin. BIM qurilish materiallarini tanlash, hajmni hisoblash va arxitektura modellarini ishlab chiqishda sezilarli darajada yordam beradi. O'zbekistonda qurilish kompaniyalari BIM kabi texnologiyalarning joriy etilishiga katta e'tibor qaratishlari lozim, chunki bu qurilish jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

- Xarajatlarni nazorat qilish va samarali boshqarish. Raqamli iqtisodiyot qurilish korxonalariga o'z moliyaviy resurslarini yaxshiroq boshqarish imkonini beradi. Elektron byudjetlashtirish va moliyaviy hisobotlar dasturlari yordamida qurilish materiallarining xaridi, ishchi kuchining maoshlari va boshqa xarajatlar raqamli platforma orqali nazorat qilinadi. Bu esa xarajatlarni tejash va moliyaviy jarayonlarni shaffof qilishga imkon yaratadi.

- Amaliy samaradorlik va vaqtni tejash. O'zbekistonda qurilish sohasida vaqt va ish kuchi samaradorligini oshirish uchun raqamli texnologiyalar joriy etilishi zarur. Masalan, dronlar yordamida qurilish maydonlarini nazorat qilish, 3D-printing texnologiyalari orqali qurilish elementlarini yaratish, shuningdek, sun'iy intellekt vositalari orqali prognozlashtirish, jarayonlarni nazorat qilish va tavakkalchiliklarni kamaytirish mumkin.

- Loyiha boshqaruvini takomillashtirish. Raqamli iqtisodiyotning yana bir muhim jihati bu loyiha boshqaruvini avtomatlashtirishdir. Zamonaviy ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlari qurilish kompaniyalariga biznes jarayonlarni yagona tizim orqali boshqarish, logistika, resurslar va xodimlarning ish rejaları bilan birgalikda boshqarish imkonini yaratadi. Bu esa ish jarayonini tezkorlashtiradi va xatolarning oldini olishga yordam beradi.

Raqamli iqtisodiyot joriy etishning foydali tomonlari:

- Innovatsiyalarni joriy qilish. Raqamli iqtisodiyot qurilish kompaniyalari uchun innovatsiyalarni joriy qilish va yangi ish uslublarini qo'llash imkonini beradi. Masalan, sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish yordamida loyihalarning murakkabligini kamaytirish mumkin. Shuningdek, yangi texnologiyalardan foydalanish raqobatbardoshlikni oshiradi.

- Ish joylarini yaxshilash. Raqamli iqtisodiyot joriy etilishi ishchi kuchi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish imkonini beradi. Masalan, masofadan turib ishlash, qurilish ob'ektlarini monitoring qilish va jamoaviy aloqa vositalari orqali ishlarni tashkil etish ancha qulay bo'ladi.

- Ekologik barqarorlik. Raqamli iqtisodiyotdan foydalanish qurilish jarayonlarida kam uglerodli va ekologik toza materiallardan foydalanish imkonini yaratadi. Shuningdek, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish ekologik ta'sirni kamaytiradi.

O'zbekiston qurilish korxonalarida raqamli iqtisodiyotning joriy etilishi bugungi kun talabidir. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish nafaqat qurilish jarayonlarini samarali boshqarish, balki kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Qurilish kompaniyalari raqamli iqtisodiyotni amaliyotga tatbiq etish orqali jadal rivojlanishga erishishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

S.S.Gulyamov, R.X.Ergashev, S.N.Xamraeva. Raqamli iqtisodiyot - (o'quv qo'llanma), - T.: 2020.

Abdukarimov B. "O'zbekistonda tadbirkorlik muhitini rivojlantirish va investitsion jozibadorlikni oshirish yo'llari". Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. A.: AIQI 2023. 172-176

Abdukarimov B. (2024). Makroiqtisodiy barqarorlikni taminlashda investitsiyalarni o'rni. Образование наука и инновационные идеи в мире, 47(5), 102-104.

Дадажонова, М.М., Абдукаримов Б.Г. (2020). Критерии успешного бизнеса. Экономика и социум, (7), 637-640.

Umarov O.S. Raqamli iqtisodiyot va uning rivojlanish tendensiyalari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2018 yil.

Yusupov, N.S., 2024. Tadbirkorlik faoliyatida loyixaviy boshqaruvni rivojlantirish tendensiyalari va istiqbollari. PEDAGOGS, 59(1), pp.202-207.

Файзуллаев Ж.Н. Рақамли иқтисодиёт тушунчасининг моҳияти бўйича илмий ёндашувлар таҳлили. ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ 2022, 1(149).